

O‘zbek milliy musiqa ijrochiligining nazariy asoslari (Buxoro Shashmaqomi misolida)

Ramazonova O‘g‘iloy Xolmurodovna
Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va
madaniyat kafedrasasi katta o‘qituvchisi

Aslonova Nazokatxon Ilhom qizi
12-1vokal-21 guruh talabasi

Annotatsiya: Bizga ma’lumki, ko’hna va navqiron Buxoro o‘zining juda boy madaniyati va san’atiga ega. Shuningdek ushbu shahar Buxoro Shashmaqomi bilan dunyoga dong taratgan. Uzoq yillar davomida Buxoro Shashmaqom namunalari to‘planib chop etilgan va ilmiy-nazariy asosda o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Shashmaqom, hofiz, saroy, saroy hofizi, an’anaviy xonanada.

Bizga ma’lumki, ko’hna va navqiron Buxoro o‘zining juda boy madaniyati va san’atiga ega. Shuningdek ushbu shahar Buxoro Shashmaqomi bilan dunyoga dong taratgan. Uzoq yillar davomida Buxoro Shashmaqom namunalari to‘planib chop etilgan va ilmiy-nazariy asosda o‘rganilgan. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “Agar biz san’atni, madaniyatni ko‘tarmoqchi bo‘lsak, avvalo, mumtoz maqom san’atini ko‘tarishimiz kerak”, deb bejizga aytmaganlar va bu borada 2017yil 17-noyabrda “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ 33-91sonli Prezident qarori qabul qilindi.

Ovozning tozaligi va keng ko‘lamliligi tabiiy iqlim sharoitiga ham bog‘liq bo‘lib, masalan, dengiz yoki okean bo‘ylarida yashovchi xonandalar ovozi juda jarangdor bo‘lib, erkak xonandalarning ovozlari juda go‘zal, rang-barang tembrga ega bo‘lar ekan. Issiq o‘lkalarda, ya’ni ekvatorga yaqin mamlakatlarda xonandalarning ovozlari nisbatan quruqroq yoki jarangdorligi nisbatan sustroq bo‘lib, tenor va bariton ovozlari ko‘plab uchraydi. Ekvatordan Shimolga tomon surilib kelavergan sari ovozlari turi pasayib tenor, bariton, bas va yo‘g‘on bas kabi ovoz ko‘lami va turlari yo‘g‘onlashib boradi. Shimoliy Muz okeaniga yaqinlashganda bas ovozi xonandalar ko‘payadi. Bundan kelib chiqadiki, xonandalar uchun tabiiy iqlim sharoiti va jismoniy tuzilishi katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham xonandalar boshqa mamlakatlarda gastrol-konsert safarlarida bo‘lsalar ba’zi holatlarda ovoz yurmasligi va hatto bo‘g‘ilib qolishi holatlari ham uchrab turadi. Lekin shunday ham bo‘ladiki, boshqa o‘lkalarda ovozi ochilib ketishi, hattoki o‘z vatanida ham ovozi

bunchalik jaranglamaganligi ham kuzatiladi. Bunday ijrolar albatta xonandaning kayfiyati, yaxshi hordiq chiqarganligi, toza, sof havodan nafas olishi, hatto qanday ovqat tanovul qilishiga ham bog‘liqdir. Xonandaning kayfiyati tushishi ham ijro uchun salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Sahna ortida endigina ijroga tayyorgarlik ko‘rayotgan xonandaning kayfiyati ko‘tarinki bo‘lishi shart. O‘zbek milliy musiqa ijrochiligi juda qadim va boy an‘analarga ega bo‘lib, xonandalik ovozlarning turlicha toifalarini hamda usluban rango-rang aytim xususiyatlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Ushbu o‘ziga xosliklarni yoritish, nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, shuningdek ularni hozirgi zamon kasbiy musiqa ta’limi jarayoniga kengroq joriy qilish vazifalari bugungi kunda nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tabiiyki, Farg‘ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Xorazm va Surxondaryo, Qashqadaryo vohalarining musiqiy udum-an‘analari o‘rtasida chuqur milliy mushtaraklik mavjud. Shunday bo‘lsa-da, mahalliy-yerli o‘zgacha ijodiy ko‘rinishlar sezilarli darajada saqlangan. Shu boisdan ko‘tarilayotgan masalani asosan bizga bevosita dahldor bo‘lgan Buxoro xonandaligi misolida yoritishni maqsad qilib oldik. Qadimda Buxoro hofizlari saroy hofizlari hisoblangan, chunki maqomlar faqat saroylarda ijro qilingan. Zabardast Buxoro hofizlariga Ota Jalol Nosirov, Ota G‘iyos Abdug‘aniyev, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov va boshqa hofizlarni misol qilish mumkin. Buxoro maqomlari o‘zining mukammalligi, murakkabligi, jozibadorligi va doira usullarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Maqomlar Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Hofiz Sheroziy, Lutfiy, Ogahiy, Nodira, Nozima, Zebiniso kabi lirik shoirlarning fors-tojik va turkiy zabon tillarida yozilgan g‘azallari orqali hozirgi kungacha ijro qilinib kelinmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida ham an’anaviy xonandalik bo‘limlari, Yunus Rajabiy nomidagi milliy maqom san’ati instituti, vohalarda maqomga ixtisoslashgan san’at maktablarining ochilganligi- bu maqom san’atiga berilgan yuqori bahodir. Prezidentimizni ishonchlarini oqlash, milliy maqom san’atini butun jahon sahnalarida baralla ijro qilish va o‘zbek millatining gultoji bo‘lmish –maqomlarni tanitish bu bizning oliy maqsadimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. F.Mamadaliyev. “Milliy musiqa ijrochiligi masalalari” 2001 y.10-11 betlar.
2. [Взгляды восточных мыслителей на узбекскую народную музыку.](#)
У.ХРамазонова. Multidisciplinary Journal of Science and Technology 3(5), 45-46
3. Holmurodovna R. U. I., Oqila S. Makom art is a priority in the musical culture of Uzbekistan //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 2 (47). – С. 87-88.

4. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
5. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
6. Ramazonova U.X., Esanova M.J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501.
7. Raxmatova M. O., qizi Aslonova N. I. Today's Makom Traditions Spiritual Significance //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 340-342.
8. Ramazonova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 336-339.
9. Рамазонова Ў. Х. ТАЛАБАЛАРДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТУШУНЧАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ, ГУРУҲ БИЛАН ИШЛАШ ВА УНИ БОШҚАРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ.
10. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.
11. Рамазонова У. Х., Эсанова М. Ж. ПОДГОТОВКА МОЛОДЫХ ПЕВЦОВ К АНСАМБЛЕВОМУ ВЫСТУПЛЕНИЮ //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1. – С. 88-91.
12. Ramazonova U. H., Muhamadova M. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students. – 2022.
13. Ramazonova O. K., Shukurov M. Historical development of status. – 2022.
14. Features of Sound Recording in the Uzbek Singing Art
U H Ramazonova.Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN 2795 (546X), 58
15. XORAZM MAQOMLARINING TALABALARGA O'RGATISH USULLARI S.Saidaxmedov. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 324-326
16. O'n ikki maqom tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari .
PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Maxsus son 6 (3), 169-170
17. O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASIDA SHASHMAQOMNING O'RNI VA AHAMIYATI O.Farangiz. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI, 92-95
18. Подготовка молодых певцов к ансамблевому выступлению
У .Х. Рамазонова, М.Ж .Эсанова. Наука, техника и образование, 88-91

19. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students U.H. Ramazonova, M. Muhamadova. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3 (3), 318-321
20. Талабаларда маънавий-ахлоқий тушунчаларни шакллантириш, гуруҳ билан ишлаш ва уни бошқариш тамойиллари .Ў.Х. Рамазонова. *Scientific progress* 1 (5), 586-590
21. The role of the creative heritage of eastern thinkers in the formation of the spiritual and moral outlook and musical perception of young people Umurova Marifat Yoshiyevna 2021/4/23 102-104
22. Yoshiyevna U. M. The method of organizing "group singing" in teaching "musical culture" in secondary schools // *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*. – 2022. – T. 4. – S. 271-274.
23. Umurova M. Yo. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools // *Vestnik nauki i obrazovaniya*. – 2020. – №. 22-2. – S. 24-26.
24. О‘.Х. Рамазонова. Talabalarda ma'naviy-ahloqiy tushunchalarni shakllantirish, guruh bilan ishlash va uni boshqarish tamoyillari. *Scientific progress* 1 (5), 2021
25. The Importance of Imagination and Perception in Traditional Singing Performance R .O. Kholmurodovna, M.J. Esanova *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress* 2 (2), 73-74
26. Features of Sound Recording in the Uzbek Singing Art UH Ramazonova *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences* ISSN 2795 (546X), 58
27. RAXMANOVA, Istatjon. "MUSIQA TA'LIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING MAVJUD HOLATI." *Journal of Culture and Art* 1.10 (2023): 86-89.
28. Muminovna, Rakhmanova Istatjon. "Pedagogical Requirements for a Modern Music Teacher and His Possibilities of Using Technologies." *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT* 2.4 (2023): 244-247.
29. Muminovna, Rakhmanova Istatjon. "PREPARING A MUSIC TEACHER TO USE MODERN TECHNOLOGY." *Thematics Journal of Arts and Culture* 6.1 (2022).